

ICHKI MIGRANT TALABALARNING TA'LIM JARAYONIDA IJTIMOYIY FAOLLIGINI OSHIRISH ORQALI FUQAROLIK POZITSIYASINI MUSTAHKAMLASH YO'LLARI

Eshonjonov Bobir Zafarjonovich

*"Vatan" Universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (Phd).*

Telefon: +998(93) 512-06-11 E-mail: bobireshonjonov2@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0001-0471-732x>

Annotatsiya: Mazkur maqolada ichki migrant talabalarning ta'lim jarayonida ijtimoiy faolligini oshirish orqali ularning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash yo'llari nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqotda ichki migratsiya sharoitida tahsil olayotgan talabalarning ijtimoiy moslashuvi, fuqarolik ongining rivojlanishi hamda ta'lim muhitining tarbiyaviy salohiyati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ochib berilgan. Aksiologik, shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida talabalarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlar asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ichki migrant talabalar, ijtimoiy faollik, fuqarolik pozitsiyasi, aksiologik yondashuv, fuqarolik ongini rivojlantirish, ijtimoiy-madaniy moslashuv, vatanparvarlik, pedagogik mexanizmlar, oliy ta'lim muhiti, talaba yoshlar

WAYS TO STRENGTHEN THE CIVIC POSITION OF INTERNAL MIGRANT STUDENTS THROUGH ENHANCING THEIR SOCIAL ACTIVITY IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Bobir Zafarjonovich Eshonjonov

Senior Lecturer, Department of Social Sciences, "Vatan" University Doctor of
Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Phone: +998 (93) 512-06-11 E-mail: bobireshonjonov2@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-0471-732X>

Abstract: This article presents a theoretical and practical analysis of ways to strengthen the civic position of internal migrant students by enhancing their social activity in the educational process. The study reveals the interrelationship between the social adaptation of students studying under conditions of internal migration, the development of their civic consciousness, and the educational potential of the learning environment. Based on axiological, learner-centered, and competency-based approaches, pedagogical mechanisms aimed at fostering students' social activity are substantiated.

Keywords: internal migrant students, social activity, civic position, axiological approach, development of civic consciousness, socio-cultural adaptation, patriotism, pedagogical mechanisms, higher education environment, university students.

ПУТИ УКРЕПЛЕНИЯ ГРАЖДАНСКОЙ ПОЗИЦИИ ВНУТРЕННИХ СТУДЕНТОВ-МИГРАНТОВ ПОСРЕДСТВОМ ПОВЫШЕНИЯ ИХ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Эшонжонов Бобир Зафаржонович

*старший преподаватель кафедры социальных наук Университета «Vatan» доктор
философии (PhD) по педагогическим наукам*

Телефон: +998 (93) 512-06-11 E-mail: bobireshonjonov2@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-0471-732X>

Аннотация: В данной статье с теоретической и практической точек зрения проанализированы пути укрепления гражданской позиции внутренних студентов-мигрантов посредством повышения их социальной активности в образовательном процессе. В исследовании раскрыта взаимосвязь между социальной адаптацией студентов, обучающихся в условиях внутренней миграции, развитием их гражданского сознания и воспитательным потенциалом образовательной среды. На основе аксиологического, личностно-ориентированного и компетентностного подходов обоснованы педагогические механизмы, способствующие развитию социальной активности студентов.

Ключевые слова: внутренние студенты-мигранты, социальная активность, гражданская позиция, аксиологический подход, развитие гражданского сознания, социокультурная адаптация, патриотизм, педагогические механизмы, образовательная среда высшего образования, студенческая молодежь.

KIRISH

Bugungi kunda ichki migratsiya jarayonlarining kuchayishi jamiyatning barcha sohalarida, xususan, oliy ta'lim tizimida muhim ijtimoiy-pedagogik o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Turli hududlardan kelib, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan ichki migrant talabalar yangi ijtimoiy-madaniy muhitga moslashish, jamiyat hayotida faol ishtirok etish va o'z fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish zarurati bilan to'qnash kelmoqda. Shu jihatdan, ichki migrant talabalarning ta'lim jarayonidagi ijtimoiy faolligini oshirish orqali ularning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash masalasi zamonaviy pedagogikaning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Ichki migrant talabalarning ijtimoiy faolligi ularning jamiyatdagi o'rnini anglash, fuqarolik mas'uliyati,

ijtimoiy hamkorlik va vatanparvarlik tuyg'ularining rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, mazkur toifa talabalarning ta'lim jarayonida ijtimoiy faolligi yetarli darajada rag'batlantirilmayapti, bu esa ularning fuqarolik ongining sust shakllanishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini ijtimoiy yo'naltirilgan, qadriyatga asoslangan va shaxsga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Jamiyat taraqqiyotida insoniyat tafakkuri tarzi va uni yaratgan barcha moddiy, ma'naviy boyliklarning mazmun-mohiyati, ijtimoiy taraqqiyotning asosiy maqsadlari u yoki bu darajada tolerantlik fenomeniga bog'liqdir. Shu boisdan ham ushbu ijtimoiy hodisaning ahamiyatini va uning funksional jihatlarini to'laqonli anglash jamiyatning sotsial rivojlanishi darajasi, inson tafakkuri, dunyoqarashi va uning bilim salohiyatini kengroq tarzda belgilaydigan asosiy omil darajasiga ko'tarilgan. Zero, "tolerantlik (lotin tilida *"tolerantia"*) – o'zgalar hayot tarzi, nuqtayi nazarlari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan sabrlilik, toqatlilik, bag'rikenglik munosabatini ifodalovchi tushunchadir [1]".

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ-№3907-sonli Qarori bilan barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Intellektual salohiyatli yosh avlod, xususan o'smirlar bilan doimiy muloqot o'tkazish sohaga oid dolzarb muammolarni aniqlash hamda ularni hal etishda davlat organlari va jamoat tashkilotlari faoliyatining ajralmas qismiga aylandi. Biroq, tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'smirlarda o'z millatiga sodiqlik, o'z taqdiri uchun qayg'urish va daxldorlik hissini kuchaytirish, ularning qalblarida yot g'oya va salbiy qarashlarning ta'siriga nisbatan mafkuraviy immunitetni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar yetarli darajada tizimli tashkil etilmaganligi va natijada kutilgan ijobiy samara berilmayotganligi

kuzatilmoqda. Bu borada yanada samaraliroq, innovatsion yondashuvlar va mexanizmlarni joriy etishning ilmiy-metodik asoslari va amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish bilan bog'liq fundamental ilmiy tadqiqotlarga zarurat ortmoqda.

“Avesto”da borliqning 4 ta moddiy asosi – tuproq, suv, havo, olovning muqaddaslashtirilishi va “ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal [3]” tamoyili bilan bog'liqdir. “Zardushtiylikdagi ezgulikni qaror toptirish g'oyasi insonparvarlikning buyuk tamal toshidir, desak xato bo'lmas, albatta. Shu g'oya asosida shakllangan davlat va jamiyatda odam eng oliy qadriyat darajasiga ko'tariladi. Ahuramazda o'z bandalariga iroda erkini berib, ezgulikni yovuzlikdan ajrata bilishni, faqat yovuzlikka qarshi kurash jarayonidagina jamiyatda ezgulik barqaror bo'lishini ta'kidlaydi”. “Yaxshi amallarni bajarishda sobitqadam va tavba qilishda barcha gunohlardan yuz o'g'iraman. Men qalbimning olti xususiyatini yomonlikdan saqlagan holda, amallarning pokligini asrayman: tafakkur quvvati, so'z qudrati, ish kuchi, ehtiyotkorlik, aql va donolik” dir.

“Tolerantlik” termini ingliz olimi P.Medavar (1953) tomonidan “ko'chirib o'tkazilgan begona to'qimaga nisbatan organizm immun sistemasi “chidamliligi”ni ko'rsatish” maqsadida taklif etilgan [4]. O'zbek olimi Abdukarim Zikiryoeyevning ta'kidlashicha, “tolerantlik (immunologik tolerantlik) barcha antigen immunologik xususiyatini saqlagan holda organizmning muayyan antigenga nisbatan immunologik javobining yo'qolishi yoki susayishidir. A.M.Baybakovning “Katta yoshdagi o'smirlarda kichik guruhlar orasidagi o'zaro aloqa jarayonida tolerantlikni tarbiyalash” nomli dissertatsiyasi [5]da tolerantlik tarbiyasining falsafiy, psixologik-pedagogik yo'nalishlari ajratilgan bo'lib, o'smir yoshdagi talabalarning kichik guruhlari orasida tolerantlikni qaror toptirishga xizmat qiladigan ta'limiy topshiriqlar tizimi belgilab berilgan. Shu bilan birga, R.R.Valitovanning “Tolerantlik axloqiy muammo sifatida” nomli dissertatsiyasi [6]da shaxsda mavjud bo'lgan tolerantlik tuyg'usining axloqiy me'yor sifatida rivojlantirib borilishi ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.

Pedagogik bag'rikenglik — bu o'qituvchining turli madaniyatlar va ijtimoiy qatlamlarga ega bo'lgan talabalarga nisbatan ochiqqligini, ularni qabul qilishini va hurmat qilishini anglatadi. Bu kompetensiya, shuningdek, o'qituvchilarning o'z bilimlarini va pedagogik usullarini talabalarning ehtiyojlariga moslashtirish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Migrant talabalarning o'ziga xos xususiyatlari va muammolarini hisobga olgan holda, o'qituvchilar ularga yordam berish uchun maxsus metodlarni qo'llashlari zarur.

Bogian o'z tadqiqotlarida migrant talabalar bilan ishlashda o'qituvchilarning bag'rikenglik ta'limi bilan bog'liq xabardorlik darajasini oshirish zaruratiga alohida e'tibor berib, bu borada maxsus pedagogik strategiyani ishlab chiqishni asoslab bergan. O'quv muassasalari madaniy va madaniyatlararo ta'limni integratsiyalashgan holda migrant talabalarni tarbiyalash mas'uliyatini o'z zimmlariga olishlari kerakligiga urg'u berib o'tgan. Bu esa har bir pedagogning aqliy va axloqiy tamoyillar asosida shakllanishiga imkon yaratadi. "Migrant talabalar pedagogik tolerantlik kompetensiyasini rivojlantirish metodlari" mavzusida tolerantlikning ahamiyatini ta'kidlash lozim. Tolerantlik, asosan, eng yuksak darajadagi gumanistik fazilat bo'lib, bu fazilatni ta'lim-tarbiya jarayonlarida migrant talabalar ongiga singdirishga erishish muhimdir. Ayniqsa, migrant talabalar bilan ishlashda bu tamoyil katta ahamiyatga ega. Ba'zi AQShlik olimlar pedagogik tolerantlikni maktablardagi ijtimoiy va irqiy muammolarni bartaraf qilish, individual farqlari va xilma-xillikni qo'llab-quvvatlash uchun zarur shart deb hisoblaydilar. Ushbu nuqtai nazar migrant talabalar ta'lim olish jarayonida va jamiyatga integratsiyalashuvida pedagogik tolerantlikning o'rnini yaqqol ko'rsatadi. Shunday qilib, pedagogik tolerantlik yordamida migrant talabalar o'zlarining yangi muhitlariga moslashishlari, ijtimoiy aloqalarini rivojlantirishlari va akademik muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur sharoitlarni yaratish mumkin. Bu jarayon, o'z navbatida, jamiyatda bag'rikenglik va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Migrant talabalar uchun bag'rikenglik kompetensiyasi juda muhimdir, chunki ular yangi madaniyat va muhitga moslashish jarayonida turli qiyinchiliklarga duch

kelishlari mumkin. Bag'rikenglik kompetensiyasi yordamida migrant talabalar o'zlarining yangi atrof-muhitlariga tezroq moslashishlari, yangi do'stlar orttirishlari va akademik muvaffaqiyatga erishishlari mumkin. Ular o'z madaniyati va urf-odatlarini bilishlari, shuningdek, ularning yangi muhitidagi madaniyatlarni tushunishga intilishlari kerak. Bu, masalan, yangi tilni o'rganish, mahalliy an'analarga hurmat bilan qarash va o'zaro aloqalarda ochiq fikrda bo'lishni o'z ichiga oladi. Empatiya va boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyati migrant talabalar uchun muhimdir. Ular boshqa talabalarning tajribalarini tushunib, ularga yordam berish orqali ijtimoiy tarmoqlarini kengaytirishi mumkin. Bu nafaqat ularning ijtimoiy hayotini boyitadi, balki akademik muhitda ham ko'mak beradi. Bag'rikenglik kompetensiyasi migrant talabalarni ijtimoiy adolat va tenglikni ta'minlashga ham undaydi. Ular o'zlarining tajribalarini boshqalar bilan baham ko'rish orqali ijtimoiy muammolarni aniqlash va hal etishda faol ishtirok etishlari mumkin. Bu, o'z navbatida, ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va jamiyatda faol rol o'ynashlariga yordam beradi. Umuman olganda, migrant talabalar uchun bag'rikenglik kompetensiyasini rivojlantirish nafaqat ularning shaxsiy o'sishi uchun, balki ularning atrofidagi jamiyatni ham boyitishga xizmat qiladi. Bu jarayon orqali ular global muammolarni hal etishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ko'p madaniyatli jamiyatning bir qismi bo'lishadi.

Migrant talabalarda pedagogik tolerantlik kompetensiyasini rivojlantirish nafaqat o'qituvchining bilim va ko'nikmalarini oshirishni, balki uning shaxsiy fazilatlarini takomillashtirishni ham talab etadi. O'qituvchilarning tolerantlik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari quyidagi omillar bilan bog'liq:

- Tolerantlikka oid axloqiy tamoyillarga yo'naltirilgan insoniy xulq-atvorlarning tarkib topishi. O'qituvchi nafaqat tolerantlik haqida bilishi, balki uni o'z xatti-harakatlarida namoyon eta olishi kerak.

- Tolerantlik kompetensiyasini rivojlantirishda ijtimoiy xulq-atvor va ongli xatti-harakatlarning namoyon bo'lishi. O'qituvchi o'z faoliyatida tolerantlik tamoyillariga amal qilishi, talabalar bilan muloqotda ularga hurmat bilan munosabatda bo'lishi lozim.
- Tolerantlik kompetensiyasini tarkib toptirishda samimiylilik, bardoshlilik, himmatlilik kabi ko'nikmalar va intellektuallik xususiyatlarning tarkib topishi. Ushbu fazilatlar o'qituvchiga migrant talabalarining ehtiyojlarini tushunish va ularga yordam berishda muhim rol o'ynaydi.
- Tolerantlik kompetensiyasini rivojlantirishda shaxs o'z xulq-atvoridagi kamchiliklarni anglagan holda o'z-o'zini tarbiyalash va shaxslararo munosabatlarda axloqiylik tamoyillarni vujudga keltirish. O'qituvchi o'z xatolarini tan olishga va ularni tuzatishga tayyor bo'lishi kerak.
- Tolerantlik kompetensiyasini rivojlantirishda, bag'rikenglikning kategoriyalaridan sanaluvchi sabr-toqatlilik, mehr-muhabbatlik, bardoshlilik, samimiylilik, vafodorlik jihatlarni namoyon etish. Bu fazilatlar migrant talabalar bilan ishlashda sabrli va tushunuvchan bo'lishga yordam beradi.
- Tolerantlik kompetensiyasini rivojlantirishda, asosan, o'qituvchilarning bir-biriga hurmat, o'zaro yordam berish, muloyimligi, sofdilligi, mehnatsevarligi kabi xususiyatlarning tarkib topishi. O'qituvchilar jamoasida tolerantlik muhitini yaratish, bu tajribani talabalarga o'tkazishga yordam beradi.
- Tolerantlikning quyidagi axloqiy belgilari, ya'ni atrofdagi kishilarga, jamoaga, jamiyatga, vatanga, mehnatga, o'z burchiga munosabatlari hamda burch va mas'uliyat, vijdon, or-nomus, sadoqat kabi insoniy fazilatlarini takomillashib boradi. Bu fazilatlar o'qituvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi va unga migrant talabalarga namuna bo'lishga yordam beradi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Migrant talabalarda pedagogik tolerantlik kompetensiyasini rivojlantirish usullari;

1. Madaniy sezgirlik bo'yicha mashg'ulotlar: O'qituvchilar talabalarining madaniy kelib chiqishi haqida bilishga yordam berish. O'qituvchilarning madaniy sezgirlikni oshirish bo'yicha mashg'ulotlar ularga talabalarning madaniy xilma-xilligi, qadriyatlari, e'tiqodlari va tajribalari haqida tushuncha beradi. Bunday mashg'ulotlar o'qituvchilarga turli madaniyatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lishga, stereotiplardan qochishga va madaniy jihatdan sezgir bo'lgan ta'lim muhitini yaratishga yordam beradi.

2. Empatiyaga asoslangan usullardan foydalanish: Talabalarning pozitsiyalarini ko'rishni rag'batlantirish. Empatiya - bu boshqa odamning his-tuyg'ularini tushunish va baham ko'rish qobiliyatidir. O'qituvchilar empatiyaga asoslangan usullardan foydalanib, talabalarning pozitsiyalarini ko'rishni rag'batlantirishlari mumkin. Bunga talabalarning shaxsiy hikoyalarini baham ko'rishga undash, turli nuqtai nazarlarni muhokama qilish va rolli o'yinlar o'tkazish kiradi. Empatiya talabalar o'rtasida ijobiy munosabatlarni rivojlantiradi, zo'ravonlikni kamaytiradi va akademik natijalarni yaxshilaydi.

3. Madaniy almashinuv dasturlarini amalga oshirish: Talabalarning madaniy xilma-xillikni o'rganishiga imkon berish. Madaniy almashinuv dasturlari talabalarga boshqa madaniyatlar bilan bevosita tanishish imkoniyatini beradi. Bu dasturlar talabalarga xorijga sayohat qilish, boshqa madaniyatlardan bo'lgan talabalar bilan yashash va o'qish, madaniy tadbirlarda ishtirok etish va boshqa madaniyatlarning tillarini o'rganish imkoniyatini beradi.

4. Hamkorlik loyihalarini rag'batlantirish: Har xil kelib chiqishi bo'lgan talabalar uchun ishlash imkoniyatini ta'minlash. Hamkorlik loyihalari turli madaniyatlardan bo'lgan talabalarga birgalikda ishlash imkoniyatini beradi. Bu loyihalar talabalarga o'zaro hurmat, hamkorlik va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

5. Tengdoshlarni qo'llab-quvvatlash guruhlarini yaratish: Talabalarga bir-birlari bilan bog'lanish uchun xavfsiz joy berish. Tengdoshlarni qo'llab-quvvatlash guruhlari talabalarga o'z tajribalari, his-tuyg'ulari va muammolari haqida bir-birlari bilan baham

ko'rish imkoniyatini beradi. Bu guruhlar talabalarga o'zaro yordam, tushunish va qabul qilish hissini beradi. Tengdoshlarni qo'llab-quvvatlash guruhlarida ishtirok etgan talabalar o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi, stressni kamaytiradi va ijtimoiy moslashuvni yaxshilaydi [9].

7. Adolat va inklyuzivlikni qo'llab-quvvatlash: Diskriminatsiya va kamsitishga qarshi turish. O'qituvchilar adolat va inklyuzivlikni qo'llab-quvvatlash orqali diskriminatsiya va kamsitishga qarshi turishlari mumkin. Bunga diskriminatsiya va kamsitish holatlarini qoralash, ularga qarshi kurashish va barcha talabalar uchun teng imkoniyatlar yaratish kiradi. Diskriminatsiya va kamsitishga duchor bo'lgan talabalarda stress, depressiya va o'ziga bo'lgan ishonchning pasayishi kabi salbiy oqibatlar yuzaga kelishi mumkin [11].

XULOSA

Ichki migrant talabalarning ta'lim jarayonida ijtimoiy faolligini oshirish ularning fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish va mustahkamlashning muhim pedagogik sharti hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalarning jamoaviy faoliyatga jalb etilishi, ijtimoiy loyihalarda ishtiroki, fuqarolik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash hamda ta'lim muhitining tarbiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish ichki migrant talabalarda ijtimoiy mas'uliyat, faol fuqarolik ongini rivojlantirishga xizmat qiladi. Aksiologik va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni ichki migrant talabalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglash, jamiyat hayotida faol ishtirok etish va vatanparvarlik pozitsiyasini mustahkamlash imkonini beradi. Mazkur maqola xulosalari oliy ta'lim muassasalarida ichki migrant talabalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish, ularning ijtimoiy faolligi va fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etishda muhim ahamiyat kasb etadi..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ноттурино Марк. Толерантность, свобода и истина: фаллибализм и открытие и закрытие "закрытых обществ" // ИЖТИМОИЙ ФИКР. – 1998. – №2. – Б.89.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ-№-3907-sonli Qarori.
 3. Хамидий Х. "Авесто" дан "Шохнома" гача. – Т.: Шарқ, 2007. – Б.78 .
 4. Авесто. Хорде Авеста (Кичик Авеста) \ \ Авесто матнини тайёрлаш, таржима, сўзбоши М.В.Чистяков шарҳи. – СПб., 2005. – Б.351.
 5. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004. – Т.8. – Б.486.
- Байбаков А.М. Воспитание толерантности у старшего подростка в условиях взаимодействия малых групп: Дисс. канд... пед. наук. – Волгоград, 2003. – 149 б.
7. Валитова Р.Р. Толерантность как этическая проблема: Авт. дисс... канд. филос. наук. – М., 1997.
 8. Boghian I. Teachers' perspectives on tolerance education. A literature review. – Journal of Innovation in Psychology, Education and Didactics, 20(2), 2016. – Pp.89–203.